

BADIIY MATNNING LEKSIK XUSUSIYATI

Botirova O‘g‘iloy Yadigorovna

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistri


E-mail: ugiloybotirova9@gmail.com

Telefon raqam: +99893-536-19-01

Annotatsiya: Qofiyaning leksik tarkibi haqida gap ketar ekan, tajnis qofiya hosil qilgan omonimlar shu tilning ichki imkoniyatlariga asoslanishi muqarrar hodisa. Ammo omonimiyaning vujudga kelishi-chi? Bu til leksikasining boyligi, ijodkorning mahorati, uslubi (va h.k.) mushtarakligidan yoki boshqa sabablar tufayli ham bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Qofiya, omonim, antonim, sinonim, “Devonu lug‘otit turk”.

“Yuz” so‘zi songa nisbatan qaralganda omonim, ayni damda, u keyingi omonimik qatorning hosil qiluvchisi ham hisoblanadi. Chunonchi:



“Devonu lug‘otit turk” asaridagi quyidagi namunani olib ko‘raylik:

Sendä qachar sundilach,
Mendä tinar qarg‘ilach,
Tatlig‘ otar sunduvach,
Erkak tishi uchrashur. (I t., 481-b.)

«Shoir yoz va qishning munozarasini ta‘riflaydi. Yoz qishga aytadi: sa‘va sendan qochadi, menda qaldirg‘och rohatlanadi. Bulbul turli nag‘masi bilan sevintiradi. Menda (yozda) erkak va urg‘ochi juftlashadi»..

Matn antonim, sinonim va omonimlar, aniqrog‘i, shunday xususiyatlarni namoyish etuvchi so‘zlar majmuyidir. Yuqoridagi parchada qator so‘zlar mazmuniy, vazifaviy planga ko‘ra antonimlar bo‘lib, buni «sanda-manda», «erkak-tishi» hamda «qachar-tinar» juftliklari ma‘no munosabatida ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Bunda sanda//qishda, manda//bahorda o‘rnidadir va shuning uchun ham she‘riy parchada ularning antonimligi shaxs tushunchasidan yiroq, «qish+bahor»ni anglatishi jihatidagina yuzaga kelmoqda.

Mazkur she‘rda qofiyadoshlikni faqat antonimlar bilan bog‘lash ham u qadar haqiqatga yaqin emas. Chunki band doirasidagi qofiyadoshlik bilan bir qatorda, matn doirasidagi qofiyadoshlik ham mavjudki, u bandlar osha ritm hosil qilishni ta‘minlaydi:

Matn:

Sanda qachar sandulach

Chizmasi:

_____ r _____

Manda tinar qarlug‘ach _____ r ____
 Tatlig‘ otar sanduvach _____ r ____
 Erkak tishi uchrashur. _____ r

Ko‘rinadiki, dastlabki uch misra ikkinchi so‘zlarining tugallovchisi bo‘lgan **r** tovushi ritm hosil qilish barobarida qofiyadoshlik uchun ham xizmat qilgan. To‘rtinchi misra tugallovchi so‘zi tarkibidagi oxirgi **r** ritmik jihatdan yuqoridagi uchala qofiyadosh so‘z bilan bog‘langan.

R so‘zlarning tugallovchi tovushi sifatida yuqoridagi chizmada ko‘rsatilgan xususiyatiga ega. Biroq har to‘rttala o‘rinda ham u qo‘shimcha tarkibidagi tovushdir. Binobarin, qofiyadoshlikning ikkinchi asosi ham mavjud bo‘lib, u affiksial xususiyatga ko‘ra xarakterlanadi:

_____ ar _____
 _____ ar _____
 _____ ar _____
 _____ ur.

Bu esa, maqollardagi ayrim xususiyatlarning she‘riyatga ko‘chish jarayoni mahsulidir. Shu sababli ham, dastlab qofiyalar grammatik shakl yoki tub so‘zlar ohangdoshligi tarzida shakllangan va qofiyaning asosiy qismi affiksial xarakterda bo‘lgan, degan fikr to‘g‘ri ekanligini tasdiqlaydi.

Sanda qachar sandulach
 + +
 Manda tinar qarlug‘ach...

Xuddi shu o‘rinda she‘riy parchada faqat qofiya emas, balki lingvistik hodisaga asoslanuvchi lafziy san‘at-tazod ham mavjudligini aytib o‘tmoq joiz.

«Devonu lug‘otit turk»da keltirilgan quyidagi she‘riy parchalarda qofiyadosh so‘zlar shakldoshligi alohida ajralib turadi. Ularni so‘z turkumlari bo‘yicha qator guruhlarga bo‘lib ko‘rsatish mumkin (masalan, ot, fe‘l, ot+fe‘l, olmosh+fe‘l va b.).

Yuqoridagi fikrlarga asoslanadigan bo‘lsak, matnda antonimlar tazod hosil qilgani kabi omonimga asoslanuvchi, bir qaraganda ko‘zga tashlanmay turgan boshqa poetik san‘atlar (tajnis, shuningdek tashxis) ham mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asallaev A., Rahmonov V., Musurmonqulova F. Badiiy san‘at jozibasi. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2005.
2. Berdiev X., Rajabov D. “Devonu lug‘otit turk”dagi she‘riy parchalarda qofiya. Monografiya. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2004.
3. Berdiev X. “Devonu lug‘otit turk”dagi she‘rlarning lingvopoetik tahlili. Monografiya. – Samarqand, 2020. SamISI Ilmiy kengashi tomonidan nashrga

tavsiya qilingan. MChJ “Navruz Poligraf” matbaa bo‘limida chop etildi. 26.11.2020. – 116 bet

4. Israilova, S. (2023). TARIXIY MANBALARDA RANGLAR TALQINI. MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI ILMIY JURNALI.
5. Ziyovuddinova M. Abu Abdulloh al-Xorazmiyning “Mafotih al-ulum” asarida poetika (Aruz, qofiya, badiiyat ilmi istilohlari tarixiga oid). – T., 2001.
6. Холманова, З. Т. (2021). АЛИШЕР НАВОЙИНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИК ТАРАҚҚИЁТИДАГИ ЎРНИ. ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI, 1(2).
7. Koshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk. Uch tomlik, I tom. – Toshkent, 1960.
8. Koshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk. Uch tomlik, III tom. – Toshkent, 1963.

